

EKALOGIYANING O'ZGARISHI VA UNING KEYINGI KUNLARGA TA'SIRI

Jo'rabayeva Fotima Zafarjon qizi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon Davlat Universiteti Ijtimoiy Iqtisodiyot fakulteti

Gid hamrohligi yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi mamlakatimizning ekologik o'zgarishlari va uning mamlakatimiz ijtimoiy hayoti va turizm sohasiga ta'siri o'rganib chiqilib, kelib chiqayotgan muammolarga turlicha yechim va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, Sanoat korxonalari, Global isish, Ovchilik, Qo'riqxonalar, Tabiat.

Hozirgi kunga kelib, butun jahon atrof muhitni va ekologiyani muhafaza qilish munosabati bilan turli xildagi qonunlardan tortib, tabiatni asrash uchun ko'ngil ochar tadbirlar ommaviy tarzda uyishtirilib kelmoqda. Albatta bizning davlatimiz ham bundan holi emas. Mamlakatimizda o'tgan asr oxiriga kelib zamonaviy texnologiyalar, yirik qurilish va ishlab chiqarish sanoatlari jadal rivojlanishi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi, atrof muhit ekologik vaziyatni keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Afsuski, bular qatorida turizm sohasi ham o'zining katta tasirini ekologiyaga o'tkazib kelmoqda. Bu ko'ngilni xira qiluvchi muammoning sababi shuki, mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlarning millati, dini, dunyo qarashi, madaniyati turli xil bo'lganligi sababi ko'chalarning ifloslanishi kuzatiladi. Ba'zi sayyohlar chiqindini tashlab, atrofdagi plastmassalar sigaret qoldiqlari kabi chiqindilarni tashlab ketishadi. Bundan tashqari yirik sanoat fabrikalari va transportlarda ajralib chiqayotgan zaxarli tutunlar atmosferaga ko'tarilib iqlim o'zgarishiga va hozirgi kundagi jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillardan biriga aylanib turibdi. Respublikamizda keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhafaza qilishga oid muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yirik sanoat majmualari joylashgan tumanlarda ya'ni Angreb, Olmaliq, Chirchiq, Farg'onada Marg'ilon, va Navoiydagi tabiatni muhofaza qilish muammolari
2. Agrosanoat majmualardagi ekologik muammolar.
3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi ha hozirgi kunda dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurgan.
4. O'simlik va hayvonot dunoyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari.
5. Qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

Bu turdagi global muammolarga bepisandlik bilan qaralasa, u nafaqat o'simlik va hayvonot dunyosiga balki kelajakda insonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Global iqlim o'zgarishi tufayli, mamlakatda yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan muammolar quyidagilar:

1. Ocharchilik — Iqlim o'zgarishi sababli fasillar almashinuvi buzilishi, o'simlik va hayvonlarga katta ta'sir o'tkazadi. Misol uchun, mavsumiy bo'lgan mava va sabzavotlarning kamayishi ularning bozordagi narxlarini keskin oshishiga sabab bo'ladi.
2. Qurg'oqchilik — Global isish albatta aholi o'rtasida suvga bo'lgan ehtiyojni ortishiga sabab bo'ladi. Yog'ingarchiliklarning kamligi suv zahiralariiga bir qancha muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.
3. Ishsizlikning ortishi — butun jahonda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham mavsumiy kasblar talaygina topiladi. Bunga yaqqol misol bo'la oladigan Dehqonlar, baliqchilar va ovchilar kabi kasblar faqat bir mavsumdagina ishlashni talab qiladi. Ammo, iqlimni keskin o'zgarishi bunday turdagi kasblarning yoqolib ketishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kund adavlatimiz bunday turdagi muammolarni oldini olish maqsadida katta va keng ko'lamli chora-tadbirlar va islohotlarni ommaga tadbiq qilib kelinmoqda. 1980-yil oxirida O'zbekistondagi ekologik muammolar shunchalik kuchayganki, Respublika hukumatining 1988-yil aprel oyida qabul qilingan qarorida davlatning atrof muhitini muhofaza qilish bo'yicha davlat o'rgani "O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" tashkil etildi. Bundan tashqari, ekologik xavfsizlik sohasida davlat boshqaruvini tubdan yaxshilash maqsadida va Respublikda atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik shaoitni yaxshilash, chiqindilarni atrof muhitga zararli ta'sirini oldini olish va inson salomatligini oshirish maqsadida, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va uni uzoq vaqt davomida yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PF 5024 "Ekologiya va atrof muhit sohasida davlat bshqaruvi tizimini takomillashtirish tog'risida"gi farmoniga muofiq va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apredagi PF 2915 farmoniga ko'ra "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini yo'lga qo'yish chora tadbirlari ko'rib chiqildi. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, davlatimiz xalqaro munosabatlarda ham fail qatnashib tabiatni muhafaza qilish maqsadida bir qancha talab va takliflar bildirilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 18-mayda Azon qatlamini muhafaza qilish to'g'risidagi Vena konventsiyasiga qo'shildi va 1993-yildan buyon O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi faoli konventsiyasining (Nyu-York 1992-yil may) a'zosiga aylandi. Hozirgi kunga kelib esa

O'zbekiston Respublikasi ikkinchi Prezidenti SHavkat Miramonovich Mirziyayev tomonidan "Yashil Makon" amalga loyihasi amalga oshirildi.

Hulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, bunday turdagi ekologik muammolarga faqatgina bitta davlat emas, balki buni davlatlar aro birlashib hamjihatlikda yechishimiz lozim. Zero, Tabiat biz asrashimiz va himoya qilishimizga muhtoj bo'lgan ne'matlardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PF 2915- sonli farmoni "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"
2. Uznature.uz
3. Qayumov A.A, Raxmonov R.N, Egamberdiyeva L.SH, Xamraqulov J.SH. Tabiatdan foydalanish va unu muhofaza qilish. – 2014.